

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2025
FILOLOGIYA

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

O.R.Mehmonova	
Dialogik nutq va uning birliklari.....	258
N.Y.Ortiqova	
Tovushga taqlid so'zlarning lingvopoetik xususiyatlari (Anvar Obidjon asarlari misolida).....	262
F.S.Karimova	
Fanlararo yondashuv bilingvismni o'rganish metodologiyasi	268
N.M.Karimova	
Prose in english and russian literature	273
R.X.Xayitova	
Lingvomadaniyatshunoslik nuqtayi nazaridan nostalgik leksik birliklarning tahlili.....	278
S.A.Toshmatova	
Abdulla Qodiriyning "Mehrobdan Chayon" romanining inglizcha tarjimasida metaforaning qo'llanishi	283
D.N.Abduvaxabova	
Kompyuter lingvistikasida emotiv so'zlarni aniqlash va ularning tarjimasi.....	287
Г.А.Воҳидова	
Этимологияя баъзе калимаҳо дар “Фиёс-ул-лугот”-и Муҳаммад Фиёсиддин.....	290
Л.Т.Галимуллина, Ш.И.Иброхимова	
Исследования влияния языковых контактов на тюркские языки: история и классификация	296
Н.К.Аббасова, Ш.АТожибоева	
Роль медиа в образовании.....	303
D.G'.Gafurova	
Zamonaviy hikoyalarda peyzaj tasviri.....	307
Z.Akbarova, Z.M.Sobirova	
O'qish tezligi va matnni tushunish: neyropsixolingvistik nuqtayi nazardan.....	311
Z.A.Akbarova, D.T.Ziyoidinova	
Afaziya turlari tahliliiga neyropsixolingvistik yondashuv.....	315



UO'K: 811.512.133.808.56

DIALOGIK NUTQ VA UNING BIRLIKLARI**ДИАЛОГИЧЕСКАЯ РЕЧЬ И ЕЕ ЕДИНИЦЫ****DIALOGICAL SPEECH AND ITS UNITS**

Mehmonova Ozoda Ravxshan qizi 
Quvasoy shahar, 1-IDUM, ingliz tili o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada dialogik nutq, uning tarkibiy birliliklari va nutqiy akt tushunchasi tahlil qilingan. Maqolada so'zlovchining kommunikativ maqsadini ifodalovchi intensional tahlil hodisasi ham namunalar asosida tadqiq etildi. Bundan tashqari nutqiy birliliklarning asosini tashkil etuvchi lokutiv, perllokutiv va illokutiv aktning muloqot jarayonidagi o'rni ingliz va ozbek tilidagi dialogik nutq namunalarini tahlil qilish orqali izohlab berilgan. Yuqorida sanalgan aktlar nutqiy vaziyatning aynan qaysi nuqtasida namoyon bo'lishi va bunda so'zlovchining muloqotdan ko'zlangan ichki maqsadi qanday rol o'ynosti bayon etilgan. Shu bilan birga performativ formulada ya'ni so'zlovchi niyatining ochiq ifodalanish jarayonida ohang, so'z tartibi va mayl eng asosiy ifoda vositalari ekanligi aniqlangan. Nutqiy birliliklarning struktura jihatidan tuzilishi va ifoda etayotgan kommunikativ ma'no jihatidan nutqiy aktlar vositali yoki vositasiz kabi ikki guruhga bo'linishi aniqlandi va namunalar yordamida qiyoslandi. Maqolada dialog shakli jihatidan ham tahlil qilingan va uning asosiy bo'lagi hisoblanmish replikalar haqida ma'lumot keltirilgan. Replikalar stimulus va reaksiya qismalariga ajratilishi va bunda qollaniladigan lisoniy birliklar turlicha bo'lishi aniqlangan.

Аннотация

В статье анализируются понятия диалогической речи, ее структурных единиц и речевого акта. В статье также исследовано явление интенционального анализа, выражающего коммуникативное намерение говорящего на основе примеров. Кроме того, на примере анализа диалогических речевых образцов на английском и узбекском языках раскрывается роль локутивных, перлокутивных и иллокутивных актов, составляющих основу речевых единиц, в процессе коммуникативного общения говорящего. Выясняется, в какой момент речевой ситуации возникают указанные акты и какую роль при этом играет внутренняя цель общения говорящего. В то же время установлено, что тон, порядок слов и интонация являются важнейшими средствами выражения в перформативной формуле, то есть в процессе открытого выражения намерения говорящего. Определено, что по структурному строению речевых единиц и выражаемому ими коммуникативному значению речевые акты делятся на две группы: опосредованные и неопосредованные, которые сравнивались с использованием выборок. В статье также анализируется диалог с точки зрения формы и дается информация о строках, которые считаются его основной частью. Установлено, что реплики делятся на стимульную и ответную части, а используемые в них языковые единицы различны.

Abstract

This article analyzes dialogic speech, its structural units, and the concepts of speech act. The article also studies the phenomenon of intentional analysis, which expresses the communicative purpose of the speaker, based on examples. In addition, the role of locutionary, perlocutionary, and illocutionary acts, which form the basis of speech units, in the process of communication is explained by analyzing examples of dialogic speech in English and Uzbek. It is explained at what point in the speech situation the above-mentioned acts are manifested and what role the speaker's internal purpose in communication plays in this. At the same time, it is determined that in the performative formula, that is, in the process of openly expressing the speaker's intention, tone, word order, and inflection are the main means of expression. In terms of the structural structure of speech units and the communicative meaning they express, speech acts are divided into two groups: mediated and unmediated, and compared using examples. The article also analyzes the dialogue in terms of form and provides information about its main parts, the utterance. It is determined that replicas are divided into stimulus and response parts, and the linguistic units used in them are different.

Kalit so'zlar: dialogik nutq, lokutiv akt, illokutiv akt, perllokutiv akt, nutq birliliklari, replika, performative formula, replika-reaksiya, replika-stimulus.

Ключевые слова: диалогическая речь, локутивный акт, иллокутивный акт, перлокутивный акт, речевые единицы, реплика, перформативная формула, реплика-реакция, реплика-стимул.

Key words: dialogic speech, locutionary act, illocutionary act, perlocutionary act, speech units, utterance, performative formula, utterance-response, utterance-stimulus.

TILSHUNOSLIK

KIRISH

Pragmatikaning XX asrdagi rivojlanishini biz nutq birliklarining va nutqiy aktning lingvofalsafiy ta'lomit sifatida shakklanishida ko'rishimiz mumkin. Dialog jarayonida hosil bo'ladigan nutqiy harakatlarning alohida lisoniy birlik sifatida o'rganish va ularni mazmun jihatidan tasniflash masalasi ilk bor Oksford universiteti professori Jon Ostin tomonidan 1955-yilda muhokamaga qo'yildi. Til bu insonlarning fikr-mulohazalarini bayon etish vositasi ekanligi barchamizga ma'lum, lekin undagi lisoniy birliklar har doim ham o'zining asl ma'nosini ifoda etmaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Muloqot jarayonida lisoniy birliklar ogohlantirish, tasdiqlash, buyurish, va'da berish kabi ma'nolarni aks ettirish imkoniyatiga ham ega. Ushbu jarayon dialogda so'zlovchi tomonidan amalga oshirilayotgan nutqiy faoliyat natijasidir. Bundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, *nutqiy akt* so'zlovchining aniq maqsad bilan lisoniy birliklar vositasida tinglovchiga qilgan murojaatidir. Shu o'rinda

J.Austinning qarashlarini keltirib o'tish o'rini deb bildik. Uning fikriga ko'ra, har bir gap talaffuz qilindanda o'zining asl ma'nosidan tashqari, qo'shimcha tarzda ma'lum bir harakat bajarilishiga sababchi bo'ladi, ya'ni biror voqe'a-hodisa haqida xabar beriladi, bu ma'lumot inkor qilinadi yoki tasdiqlanadi, maslahat beriladi, biror narsa iltimos qilinadi, taqiqlanadi, ijozat beriladi yoki maslaxat beriladi[1].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Dialogik nutq birliklari haqida so'z yuritar ekanmiz, asosiy e'tibor qaratishimiz lozim bo'lgan tushunchalardan biri nutqiy akt ekanligini aytib o'tishimiz lozim. *Nutqiy akt* –ma'lum bir gapning ma'lum bir muloqot muhitida talaffuz qilinishi demakdir. So'zlovchining niyati yoki maqsadi nutqiy akt mazmunini shakllantiruvchi asosiy kuch hisoblanadi

Quyida berilgan jumlanı tahlil qilamiz:

To'xta xola ro'molini uchi bilan og'zini yopib, bo'zargan holda avval o'rtoqlariga, keyin raisga qaradi:

-Endi, o'g'lim, dabdurstdan majlis deding.....asli shu gapni o'z ora jo'n gaplashib, pishitib olsag-u keyin majlisga solsang bo'lar edi [2].

Asardan olingen ushbu dialog parchasi rais va To'xta xolaga tegishli bo'lib, uning majlis boshlanishidan oldin rais bilan holi gaplashib olish niyati, yuqoridaq nutqiy aktning paydo bo'lishidagi asosiy kuch hisoblanadi. Demak, so'zlovchining ichki maqsadi nutq aktidagi jumlaning paydo bo'lishi va voqealanishida bevosita asos bo'lib xizmat qiladi. Shuni ham aytib o'tishimiz joizki, bu jarayonda so'zlovchining gapi nutqdan ko'zlangan maqsad va niyatga qarab shakllanadi ya'ni nutqiy aktning ijrosini ta'minlab beradi. Tilshunos olim J.Serl ham nutqiy akt tushunchasiga gap belgisining ma'lum bir sharoitda paydo bo'lishi va qo'llanishi deya ta'rif bergen. J.Serl nutqiy aktlarni lisoniy birliklarning eng kichik, ammo eng muhim birligi deya atagan[3]. "Nutq akti ma'ruzachining kommunikativ maqsadini namoyon etish nuqtayi nazaridan kommunikativ holat bilan bog'liq bo'lak sifatida ham, kontekstdan alohida gap sifatida ham o'zining tugal manosini saqlab qoladi [4]. Tilshunos olimlar dialogik nutqning harakatlarini tahlil qilish asnosida "nutq akti" atamasiga turlicha yondashganlar. Masalan, W.Edmonson bu atamani "o'zaro harakat" jumlesi orqali asarlarida qo'llab, kommunikativ nutqning minimal birligi sifatida yondashdi [5]. T.Van Deyk tomonidan nutq akti atamasi "kommunikativ akt" "deya tadbiq etildi va ushbu atama o'z tarkibiga kommunikativ vaziyat, so'zlovchining nutq akti, tinglovchining eshitish akti kabi omillarni olishini ham aytib o'tdi [6]. O'zbek tilshunos olimlaridan biri M.Hakimov o'z asarida: "So'zlovchining vaziyatga munosabati nutq aktlari yordamida shakllanadi" deya ta'kidlagan [7]. Shuni ta'kidlash lozimki "nutq akti" qanday atama bilan aks ettirilmasin, muloqot jarayonidagi so'zlovchi va tinglovchi o'tasidagi barcha asosiy kommunikativ vaziyatlarini o'zida ifoda etadigan tushunchadir.

Bundan xulosa qilib aytishimiz mumkinki, nutqiy akt nazariyasida gap muloqot jarayonida paydo bo'ladigan hodisa hisoblanadi, nutqiy akt mazmuni esa so'zlovchining muloqot maqsadiga bog'liq bo'ladi.

Nutqiy akt tushunchasini tahlil qilar ekanmiz, uni biz muloqot birligi bo'lmish dialogik diskursni tarkib topishiga xizmat qiluvchi bo'laklardan biri deb ayta olamiz. Ushbu jarayonda e'tibor qaratishimiz kerak bo'lgan yana bir tushuncha bu **intensional tahlildir**. Intensional tahlilda dialogik nutq jarayonida voqealanadigan nutqiy faoliyatning so'zlovchining istak va maqsadi bilan bog'liq

bo'lgan faktorlari o'rganiladi. Ushbu tahlil asoschisi J.Searl bo'lib, uning fikriga ko'ra har bir nutqiy harakat tubida yagona bir maqsad yotadi. Yana bir mashhur tilshunos O.Pocheppov esa, so'zlovchining nutqdan ko'zlangan maqsadini ikki qismga ya'ni *boshlang'ich intensiya (maqsad)* va *natijaviy intensiyaga* ajratadi [8]. Masalan "Yozma imtihon qaysi xonada bo'lyapti?" savoli kimgadir berilganda, so'zlovchining boshlang'ich maqsadi imtihon bo'layotgan xonani bilish bo'lsa, shu xonani topib kirish uning natijaviy maqsadidir. Gapning boshlang'ich intensiyasi odatda uning semantik tuzilishi bilan to'liq mos keladi. Buni bir necha gaplar tahlilida ko'rishimiz mumkin:

Men aytgan kitobni olib keldingizmi? (so'roq)

Majlisda bor-yo'g'i o'n nafar xodim qatnashdi. (darak)

Uy vazifangni bajar! (buyruq)

Ammo natijaviy intensiya harakatlari uchun gapning struktur-semantic shakli hech qanday ahamiyat kasb etmaydi. Bunda asosiy omillar gapning mazmuni va dialogik nutq faollashayotgan muhit va kontekst hisoblanadi. Aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, natijaviy maqsad akti bir vaqtning o'zida ham lisoniy ham nolisoniy harakatlarni qamrab oladi.

Aslida nutqiy akt uch bosqichli harakatni o'z ichiga oladi: **lokutiv, illokutiv, perlukutiv**. Dialogik muloqot jarayonida biror bir mazmunga ega bo'lgan jumlaning yaratilish va talaffuz etilishi bu nutqiy faoliyat bo'lib, uning ijrosi *lokutsiya yoki lokutiv akt (locutionary act)* deb ataladi. Lekin mazmunli gap tuzilsa-yu, u talaffuz etilmasa (yoki yozuvda qolsa) bu jarayon lokutsiya hisoblanmaydi. Boshqacha aytadigan bo'lsak, gap faqatgina aytilsa, talaffuz etilsagina lokutiv akt yuzaga keladi. Ammo shuni bilishimiz lozimki, har qanday shaxs mazmunli gapni tuzishidan va uni talaffuz etishdan aniq bir maqsad ko'zlagan bo'ladi. So'zlovchi ongida hattoki kichik bir jumani aytishdan ham qandaydir niyat bo'ladi. *Illokutiv akt (illocutionary force)* mana shu maqsadning voqealanishi, ya'ni dialog ishtirokchilari o'tasidagi munosabatlarning ifodalanishi demakdir. Masalan, "*Buvim charchab keldilar*" gapini talaffuz qilishdan bu narsa haqida boshqalarga ham xabar berish, buvining charchagani uchun dam olishiga sharoit yaratishga undash yoki buviga qandaydir yordam kerakligidan ogohlantirish kabi maqsadlar yotadi. Illokutiv akt mana shu kommunikativ maqsadlardan birining nutqiy vaziyatda voqealanishidir.

So'zlovchi tomonidan aytilan har bir jumla yoki gap o'zining natijaviy maqsadiga ega deya ta'kidlagan edik. Ushbu maqsad amalga oshishi uchun esa so'zlovchining nutqi tinglovchiga ta'sir etishi kerak. *Perlukutiv akt* esa muloqot jarayonidagi mana shu ta'sir o'tkazish bosqichiga nisbatan aytildi. Yuqorida keltirgan "*Buvim charchab keldilar*" gapining natijasini nutq qaratilgan shaxslarning buviga yordam berishida yoki dam olishi uchun sokin muhitni ta'minlab berishida ko'rishimiz mumkin. Bundan kelib chiqqan holda aytishimiz mumkinki, perlukutsiya nutq jarayonida tinglovchining his-tuyg'ulariga, ongiga va xatti-harakatiga ta'sir etish demakdir. Nutqiy akt nazariyasida eng keng tarqalgan tushuncha bu *illukatsiya* tushunchasidir. Dialogik nutqning, nutqiy akt strukturasining markazida, asosida ham illokutiv akt turadi. Pragmalingvistikada bu tushuncha muloqot jarayonida inson tomonidan nutqiy faoliyat orqali bajariladigan harakat deya ta'kidlanadi. Illokutiv akt yuzaga kelishi uchun nutqiy tuzilmaning o'ziga xos ko'rinishdagi illokutiv kuchi bo'lishi talab etiladi. Tilshunos olim Z. Vendler o'z asarida illokutiv maqsadni mental harakat deya takidlagan va so'zlovchi suhabat jarayonida tinglovchiga ushbu harakatni bajarishga undashini aytib o'tgan [9].

Sintaksisning bir tuzilmasi hisoblanadigan *gap* turli xil nutqiy vaziyatda turlicha *illokutiv kuchga* ega bo'lishi mumkin, ya'ni har xil kommunikativ maqsadni aks ettirishi mumkin. Ammo bu sintaktik birliklarning pragmatik zahirasi chegaralanmagan degani emas. Har qanday gapning illokutiv kuchi, kommunikatsiyadan ko'zlangan maqsadi ma'lum bir chegaraga ega. Masalan, "*Do'kon soat to'qqizda yopiladi*", "*Piyodalar o'tishi taqiqlanadi*", "*Dars tugadi*" kabi jumlalarda maqtov, rozilik, so'rov kabi illokutiv maqsadlarni kuzatish imkoni yo'qdir. Shunday ekan, gapning semantic tarkibi bilan uning illokutiv imkoniyatlari orasida uzviy bog'liqlik mavjud. Lekin nutqiy aktning uchinchi bosqichi bo'lmish perlukutiv akt va lokutiv akt o'tasida katta farq mavjud. Lokutiv akt bu dialog jarayonida so'zlovchining aytayotgan gapidan ko'zlangan maqsadi bo'lib, bu haqiqiy pragmatik omil hisoblanadi. Perlukutiv akt esa nutqiy faoliyat tasirida paydo bo'lgan natija hisoblanadi. Nutq ta'sirida natija qanday o'zgarishini oldindan aytish imkoni yo'q. Shu sababli ko'plab pragmalingvist olimlar (Searle, Vanderveken, J.Lich) perlukutiv aktni lisoniy hodisa emasligini takidlaganlar, chunki har qanday perlukutiv natijaga nutqiy harakatlarsiz ham erishish

TILSHUNOSLIK

mumkinligini aytib o'tganlar. Misol tariqasida aytishimiz mumkinki, tashqarida o'ynayotgan yosh bolani "yonimga kel" deb chorlasak ham keladi, qo'limiz bilan "kel" ishorasidan foydalangan holda yonimizga chaqirsak ham keladi. Bu erda perllokutiv natija bolaning yonimizga kelgani bo'lsa, unga nutqiy faoliyat tasirida ham, noverbal vositalar yordamida ham erishish mumkinligini guvohi bo'ldik.

Dialogik muloqot maqsadini biz ikki sathga ajratamiz, ulardan biri **ma'lumot uzatish** yoki **so'rash** bo'lsa, ikkinchisi esa **kommunikativ pragmatik** sathdir. Nutqiy vaziyatdagi pragmatik vaziyatlar, niyatlar kommunikativ maqsad asnosida voqealanadi. Kontekstda so'zlovchining maqsadi turli belgilar yordamida o'z aksini topadi. Masalan, dialog tarkibida pragmatik mazmunni aniq ko'satuvchi fe'llarni nutqiy jarayonda tez-tez uchratib turamiz. Bunday fe'llar muloqot jarayonida muhim hisoblanib, ular nutqning maqsadini, bajarilayotgan lisoniy harakatning illokutiv kuchini aniq ifoda etishga xizmat qiladilar. Bu jarayonni tahlil qilib ko'ramiz: "*Salima ertaga sen xohlagan shirinlikni tayyorlab beraman*" gapida nutqiy harakat pragmatikasi va'da berishga ishora qilmoqda. Lekin buni aniq ifodalashga xizmat qiluvchi *illokutiv fe'llar* vositasida ham bayon etishimiz mumkin: "*Salima ertaga sen xohlagan shirinlikni tayyorlab berishga va'da beraman*". Quyidagi namunalarga e'tiborimizni qaratamiz:

Xonangni yig'ishtirmaysanmi? (so'roq gap)

Xonangni yig'ishtirmaysanmi, deb so'rayman.

Illokutiv fe'llarning ma'noviy tarkibida muhim hisoblangan bo'lak bu uning kommunikativ-pragmatik mazmunini ifodalovchi semadir.

Shakl jihatidan yondashadigan bo'lsak, dialogning eng kichik birligi **replika** hisoblanadi, lekin ba'zi tilshunoslar uni nutq harakatlari va kommunikativ harakatlar kabi yanayam kichikroq komponentlarga ajratish mumkin deb hisoblashadi. Shu o'rinda replika so'zining aniq mazmunini tushunishimiz lozim. Replika aslida bayonet hisoblanib, dialogik nutqda bitta kommunikator gapiradigan vaqt demakdir.

XULOSA

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, har bir gap muloqot jarayonida qo'llanilar ekan, o'z tarkibida asl ma'nosidan tashqari qo'shimcha pragmatik ma'noni ham ifodalab keladi. Nutqiy akt ma'nosini shakkantiruvchi asosiy kuch esa nutq so'zlayotgan shaxsning maqsadi hisoblanadi. O'z ornida ,nutqiy akt tushunchasi ifodalanish va ta'sir doirasiga ko'ra uch bosqichdan iborat bo'ladi: lokutiv akt, illokutiv akt va perllokutiv akt. Nutqiy vaziyatda sozlovchining pragmatik maqsadi turli lisoniy birliklar, grammatick strukturalar yoki sintaktik qurilmalar vositasida ifodalanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Austin J.L. How To Do Things With Words. –Oxford: Oxford Univ. Press., 1962; 2 nd ed., 1973.- 167 p
2. Abdulla Qahhor. Hikoyalari to'plami. Toshkent 2013.78-bet.
3. Searle J.R. Speech Acts: An Essay in the philosophy of language. Cambridge: Cambridge University Press, 1969
4. Блох, М.Я. Слово и его воплощения / М. Я. Блох // Вестник Иркутского
5. Макаров, М.Л. Основы теории дискурса / М. Л. Макаров.– М.: ИТДГК «Гноэс», 2003.– 280 с
6. Власян, Г.Р. К проблеме формального членения разговорного диалога / Г. Р. 2001.
7. Hakimov M. O'zbek pragmalingvistika asoslari. –Toshkent, 2013.6-bet
8. Sh.Safarov. Pragmalingvistika.Toshkent 2008.80-bet.
9. Вендер 3. Иллокутивное самоубийства. В кн.: Новое в зарубежной лингвистике. Вып. 16. Лингвистическая
прагматика. – М: Прогресс, 1985.